

BOBORAHIM MASHRABNING IJODIY MEROSI

Xatamaliyeva Moxigulxon Ravshanbek qizi
FarDU filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boborahim Mashrabning hayotiga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi. XVII asr o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast ijodkori Mashrab qalandarlik tariqatining ham yirik vakillaridan biridir. Boborahim Mashrab – aziz avliyo sifatida xalqimiz tomonidan e'zozlanadigan buyuk tarixiy shaxs.

Maqolada Mashrabning adabiy merosi, uning lirik she'rlari hamda bu she'rlarning mavzulari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, maqola Mashrab haqida ma'lumot beruvchi manbalarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Boborahim Mashrab, qalandarlik, ilohiy ishq, "Qissai Mashrab", jazba, hikmat.

Аннотация. В статье анализируются сведения о жизни Боборахима Машираба. Машираб, блестящий творец узбекской классической литературы XVII века, также является одним из крупнейших представителей ордена каландар. Боборахим Машираб – великая историческая личность, почитаемая нашим народом как святой.

В статье подробно изложены сведения о литературном наследии Машираба, его лирических стихах и тематике этих стихов. Также рассматриваются источники, предоставляющие информацию о Маширабе.

Ключевые слова: Боборахим Машираб, Каландар, божественная любовь, «Киссаи Машираб», очарование, мудрость.

Abstract. This article analyzes information about the life of Boborahim Mashrab. Mashrab, a brilliant creator of Uzbek classical literature of the 17th century, is also one of the major representatives of the Qalandar order. Boborahim Mashrab is a great historical figure revered by our people as a saint.

The article provides detailed information about Mashrab's literary heritage, his lyrical poems, and the themes of these poems. The article also examines sources providing information about Mashrab.

Keywords: Boborahim Mashrab, Qalandar, divine love, "Qissai Mashrab", charm, wisdom.

Kirish. Mashrab (asl ismi: Boborahim Mulla Vali o'g'li) – o'zbek shoiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandasi. Boborahim Mashrab qachon tug'ilgani borasida olimlar orasida har xil fikrlar mavjud. Xususan, filologiya fanlari nomzodi Muhsin Zokirov 1667-yilda tavallud topganini aytsa, adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov 1673-yilda tug'ilganini aytadi. Nafaqat uning tug'ilgan yili, balki

Mashrabning tug'ilgan maskani bilan bog'liq muammoli vaziyatlar bor. Ota vatani Qo'qon bo'lgani uchun ijodining dastlabki namunalarida "Ho'qandiymiz" deb o'zining tug'ilgan maskanini keltirgan. Keyinchalik oila Namanganga ko'chib borganligi haqidagi ma'lumotlarni ayrim manbalar inkor qiladi-da (Mashrabning onasi andijonlik edi) Namanganga emas Andijonga ko'chib borishi aytiladi. Namanganda Mashrab Mulla Bozor Oxunddan tahsil olgan. 18 yil uning ta'limini olgani uchun o'zini "Namangoniyman", ya'ni o'sha yurtlik bo'lib ketdim degan iborani qo'llaydi. Demak, Mashrabning tug'ilgan joyi Qo'qon. Ona makoni Andijon. Va u eng ko'p tahsil ko'rgan, uning Mashrab sifatida shakllanishiga xizmat qilgan maskan sifatida Namangan hududi ilgari suriladi. Mashrab qaysi davrda, qaysi maskanda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar uning nomi, u qo'llagan o'ziga xos tasvirlar, ayniqsa, uning taxalluslari orqali mashhur bo'lgan g'azallari biz uchun ahamiyatli.

Boborahim Mashrabning adabiy merosi. O'zbek adabiyotida she'riy san'atlar Ilmi bade' nomi bilan o'rganiladi. Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar dastlab arab adabiyotshunosligida Nasr binni Hasanning «Mahosin ul kalom», Ibn al-Mo'tazning «Kitob ul-bade'», Quddama ibn Ja'farning «Naqd ushshe'r» kitoblarida, Markaziy Osiyoda Rashiddin Votvotning «Hadoyiq us -sehr», Shamsiddin Roziyning «Al mo'jam...», Atoulloh Husayning «Badoye' us-sanoye'» asarida kuzatiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida A.Hojiahmedov, R.Orzibekov, A.Asallayev, Y.Is'hoqovlarning tasnif va tahlillari nazariy manba sifatida tadqiqotlarda qo'llaniladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida mustazod janrida eng ko'p va eng benazir asarlar yaratgan shoir Mashrab hisoblanadi. Hozirgacha Mashrabning yigirmadan ortiq mustazodlari borligi aniqlandi. Mashrabning g'azallarida harflar bir qator ramziy ma'nolarni simvolizatsiya qiladi va buni tasavvufiy kontekstda ko'rish mumkin. Masalan: Alif – birlik, Allohga bo'lgan muhabbatni va vahdat-ul vujud (barcha mavjudotning birlik) g'oyasini ifodalaydi. Alif shuningdek, ilohiy donolikka va komillikka intilish ramzi sifatida ham qaraladi. Mashrab g'azallarida harflar san'ati orqali kuchli tasavvufi falsafani ifoda etgan va o'zining she'riy obrazlari orqali komil inson sifatida ruhiy rivojlanish yo'lini namoyish etgan. Har bir harf o'quvchini o'ylanishga majbur qiladigan chuqur ma'naviyat va murakkab ramzlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, harflar savol va tafakkur uchun manba sifatida xizmat qiladi, she'rlarni o'qiyotgan yoki tinglayotgan shaxsga o'ziga xos tajriba taklif qiladi. Shuningdek, Mashrabning ijodida har bir harfga badiiy, ma'rifiy izoh berish ko'p kuzatiladi. Ularning ayrimlari individual qo'llash bilan bog'liq bo'lsa, ayrimlari ko'p takrorlanib muayyan an'ana va dunyoqarashga asoslanganligi yuzaga chiqadi. Shu o'rinda Mashrabning yuqori ma'rifat va ilm egasi ekanligini ko'rsatuvchi quyidagi misralarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Kunlardan bir kuni Mashrabning uztozlari aytdilar: – Ey o'g'lim, bismillah, alif, – deng dedilar. Shoh Mashrab: – Alif, – dedilar. Ustozlari: “ Be”deng”, dedilar. Shoh Mashrab ustozlaridan so'radilarki,

alifning ma'nosi nimadur va "be" ning ma'nosi nima? Ustozlari achchig'lanib dedilarki, ey bachayi nodon, san kim, bu ma'no so'ramoq kim, dedilar. Shoh Mashrab aytdilar: "Ey domla, alifni ma'nosini siz aytmasangiz, man aytaman", dedilar. Ustozlari aytdilar: "Ey o'g'lim, alifning ma'nosi nimadur?" Shoh Mashrab aytdilar: "Alifning ma'nosi birdur, ul sababdin "be" demasman, mundin o'tmak xatodur", – dedilar. Ustozlari bu so'zni eshitib, hayron bo'lib qoldilar. Alifni dilga jo qilmoqni bismillodan o'rgandim, Shahid qonini to'kmoqni kalomullodan o'rgandim... Hama ayturki, Mashrab, muncha ilmni kimdan o'rganding? Xudo lutf ayladi, man barchani mavlodin o'rgandim! Ushbu qissadan ma'lumki, Mashrab har tomonlama ilmi va o'z qarorlarida qat'iy tura oladigan yuqori tafakkur egasidir. Mashrab alifni aytish orqali Allohning yagona ekanligiga ishorat etgan. Alif tasavvufda vahdat termini bilan ataladi. Bu bilan yaratganning tanholigiga, qolgan narsalar foniy va o'tkinchi ekanligiga ishora qiladi. Be harfi esa dunyodagi barcha yaratilgan narsalar, jumladan, insonni ham anglatadi. Mana shu hodisalar Boborahim Mashrabning tug'ma majzub (jazba egasi), tug'ma avliyo ekanidan darak beradi.

Xulosa. Mashrab ijodi o'zbek adabiyoti va tasavvuf tafakkurining yorqin namunasi bo'lib, unda ma'naviy poklik, ilohiy muhabbat va komillikka intilish markaziy o'rin tutadi. Shoir harflar ramzi, mustazod janri va tasavvufiy obrazlar orqali insonning ruhiy sayohatini, birlik va haqiqatni izlash jarayonini badiiy yuksaklikda ifodalagan. Mashrabning she'rlari chuqur ma'nolari, oddiy so'z ostiga yashirilgan falsafiy qatlamlari va ixlos bilan yozilgan ruhiy tajribasi bilan o'quvchini o'ylantiradi, tafakkurga chorlaydi. Uning ijodi bugun ham ma'rifat, ruhiy uyg'onish va ilohiy haqiqatni anglash yo'lida bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Машраб. Девон. – Тошкент: Sharq, 2019.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Тошкент, Шарқ, 1999.
3. Орзибеков Р.Шеърӣ санъатлар таҳлили. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2000.
4. Асаллаев А. ва бошқалар. Бадий санъат жозибаси. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2005.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент, Зарқалам, 2006.